



XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 3-iyun

VII-13-75-7-0-K/25

Samarqand viloyati

Hududlarda maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun majburiy to'lov tariflari miqdorini ma'qullash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Chiqindilar to'g'risida"gi Qonuni 11-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi "Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog'liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4845-son va 2023-yil 15-avgustdagi "Ko'p kvartirali uylarni boshqarishni yanada samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-278-son qarorlari, 2024-yil 4-yanvardagi "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-sentabrdagi 22/1-1937-sonli topshirig'i, viloyat hokimi o'rinbosari (A.Shukurov)ning 2025-yil 26-martdagi (170/01-30-sonli) bildirgisi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 25-martdagi (01-01/22-183-sonli) xati, Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi Samarqand viloyati hududiy filialining 2024-yil 9-oktabrdagi (01-3/702-sonli) murojaati, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 24-oktabrdagi (01/05-38/2763-sonli) xulosasiga asoslanib, viloyatning shahar va tumanlari hududidagi maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarini takomillashtirish, hududlarning ekologik va sanitariya holatini yanada yaxshilash maqsadida Xalq deputatlari viloyat Kengashining yettinchi chaqiriq, o'n uchinchi sessiyasi

QAROR QILADI :

1. Samarqand viloyatining shahar va tumanlarida maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun majburiy to'lov tariflari miqdori ilovaga asosan tasdiqlansin.
2. Viloyat hokimining o'rinbosari (A.Shukurov) shahar va tumanlarda qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun

majburiy to'lov tariflari miqdorini tasdiqlash to'g'risida viloyat hokimining qaror loyihasini belgilangan tartibda ishlab chiqsin.

3. Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi viloyat boshqarmasi (B.Payshanov), viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi (S.Zayniyev), viloyat Sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi boshqarmasi (L.Rustamov) shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda aholining keng qatlamlari orasida fuqarolarning huquqiy va sanitariya-ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

4. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2024-yil 29-apreldagi "Hududlarda maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun majburiy to'lov tariflari miqdorini ma'qullash to'g'risida"gi VI-98-34-7-0-K/24-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Viloyat televideniesi v.v.b (D.Ismatov), "Zarafshon" va "Самаркандский вестник" gazetalari birlashgan tahririyati (F.Toshev)ga qaror ijrosi bo'yicha hududlarda amalga oshirilgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Po'latov)hamda viloyat hokimi o'rinbosari (A.Shukurov) zimmalariga yuklansin.

Kengash raisi



Sh.Negmatov

Xalq deputatlari Samarqand viloyati
Kengashining
2025-yil 3-iyundagi
VII-13-75-7-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Shahar va tumanlarda maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish
bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari
MIQDORI**

Xizmatlar turi	Tip, marka, artikul yoki model raqami	O‘lchov birligi	Ma’qullanyotgan narx (tarif) (so‘m)
Samarqand shahri va Samarqand tumani bo‘yicha			
Aholi uchun tarif 1 kishi 1 oyda (QQS bilan)	Maishiy chiqindilar	Bir oyda fuqaro uchun	9 500
Yuridik tashkilotlari uchun tarif (QQS bilan)	Maishiy chiqindilar	m ³	124 000
		1 tonna uchun	251 900
	Suyuq chiqindilar	1 tonna uchun	119 400
Kattaqo‘rg‘on shahri va tumanlar bo‘yicha			
Aholi uchun tarif 1 kishi 1 oyda (QQS bilan)	Maishiy chiqindilar	Bir oyda fuqaro uchun	8 000
Yuridik tashkilotlari uchun tarif (QQS bilan)	Maishiy chiqindilar	m ³	100 800
		1 tonna uchun	215 000
	Suyuq chiqindilar	1 tonna uchun	97 400